

## FAVQULODDA VAZIYATLAR XAVFI TUG'ILGANDA VA SODIR BO'LGANDA EVAKUATSIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI

Xodjayev Abdug'ani Atamirzayevich

Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligini o'qitish markazi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu tezisda; aholini vaqtincha joylashtirish hududlari; tadbirlarning bajarilish muddatlari; transportda olib chiqish tartibi; ko'chirish yo'llarida jamoat tartibini va yo'l harakat xavfsizligi ta'minlashni tashkil etish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** avariya, evakuatsiya, xavfsiz joy, transport, sanitariya

**Abstract:** In this thesis; areas of temporary settlement of population; deadlines for activities; procedure for removal in transport; information is provided on the organization of public order and road safety on transportation roads.

**Key words:** accident, evacuation, safe place, transport, sanitation

**Аннотация:** В данной диссертации; районы временного расселения населения; сроки проведения мероприятий; порядок снятия на транспорт; представлена информация об организации общественного порядка и безопасности дорожного движения на транспортных дорогах.

**Ключевые слова:** авария, эвакуация, безопасное место, транспорт, санитария.

**Kirish.** Turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlashning eng samarali usuli ularni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish hisoblanadi [1, 2]. Lekin avariya yuzaga kelganda favqulodda vaziyat o'chog'i yaqinida yashaydigan aholi vaqt yetishmasligi sababli, odatda, xavfli hududdan olib chiqilmay, balki jips yopiladigan panagohlarga joylashtiriladi hamda shaxsiy nafas olish organlarini himoya qiluvchi vositalar bilan ta'minlanadilar. Bu binolarning barcha tirqish, eshik va derazalarini tashqaridan havo kirmaydigan qilib zichlab yopiladi. Aholining qolgan qismi yuzaga kelgan sharoitga qarab, eng qisqa muddatlarda xavfsiz hududga evakuatsiya qilinadi [3].

**Asosiy qism.** Aholini evakuatsiya qilish – favqulodda vaziyatlar yoki ehtimoliy favqulodda vaziyatlar zonasidan uyushgan holda piyoda, transportda yoki aralash holda olib chiqish va avvaldan tayyorlab qo'yilgan xavfsiz joylarga vaqtincha joylashtirish, shuningdek ular joylashtirilgan hududda hayot faoliyati sharoitlarini ta'minlash tadbirlari majmuidir [5, 6]. Evakuatsiya tadbiri Fuqaro muhofazasi rejasi va fuqaro muhofazasi boshlig'ining ko'rsatmalari asosida tashkillanadi va o'tkaziladi [7]. Har qanday favqulodda vaziyatda evakuatsiya rejalarining to'g'ri va to'liq tuzilishi ishning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi [8].

**Reja matnida [9]:** evakuatsiya boshlangani haqida aholini xabardor qilish; toifaga bo'linganlar soni; aholini vaqtincha joylashtirish hududlari; tadbirlarning bajarilish muddatlari; transportda olib chiqish tartibi; ko'chirish yo'llarida jamoat tartibini va yo'l harakat xavfsizligi ta'minlashni tashkil etish; zaruratda shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash; yig'ilish joylarida va ko'chirish yo'llarida harbiy harakat yuz berganda aholi muhofazasini tashkil etish; aholini xavfsiz joylarga joylashtirish, turmush sharoitini yaratish; yuqumli kasalliklarga qarshi sanitariya va emlash davolash tadbirlarini o'tkazish.

**Aholini ko'chirish usullari [10]:** transportda yordamida, piyoda hamda aralash usul.

Aralash usul — eng samarali va eng maqbul usul hisoblanadi. Bunda, asosan piyoda yura olmaydigan aholini transportda olib chiqish rejalashtiriladi [10]. Aralash usul favqulodda

vaziyatlar zonalaridan aholini ko‘chirish tartiblarini eng qisqa muddatda o‘tkazish talablariga juda mos keladi. Ko‘chirilgan aholi xavfsiz joylarda masxsus buyruq bo‘lguncha joylashtirib turiladi. Ularni jamoatchilik uchun qurilgan (mehmonxona, dam olish uylari, boshqa muassasalar) binolarga joylashtiriladi. Ko‘chirilayotgan aholini transport ta‘minoti va vaqtinchalik joylashtirish oldindan ishlab chiqilgan reja asosida yoki tezkor tartibda amalga oshiriladi. Kimyoviy xavfli moddalar tashuvchi transport vositalarida halokat sodir bo‘lganda zararlanish hududidan aholini olib chiqish va vaqtincha joylashtirish aniq vaziyatdan kelib chiqqan holda olib boriladi. Kolonnada harakatlanishda har bir guruh boshliqlari o‘z guruhlaridagi odamlarning sonini, begona odamlarning bo‘lmasligini va orqada qolayotganlarni doimo nazorat qilib boradi. Kolonnaning harakatlanish tezligi tahminan 4-5 km/soat bo‘lishi va kolonnalar orasidagi masofa 500 metrni tashkil etishi kerak. Kolonna birinchi 1-1,5 soat harakatlanishidan keyin 10-15 minut dam olishga ruxsat etiladi. Bunda odamlarga tibbiy yordam olish imkoniyati beriladi. Ikkinchi va undan keyingi yurishlardan keyin evakuatsiya qilinuvchilarga ko‘proq dam olish vaqti (1-2 soat) beriladi. Bu vaqtda odamlar issiq ovqat bilan ta‘minlanadilar va dam oladilar. Mana shunday tartibda aholi ko‘rsatilgan xavfsiz hududga yetib boradi [10]. Aholini muhofaza qilish choralari imkon qadar oldindan ko‘rilishi, avariya xavfi tug‘ilganda esa mumkin qadar eng qisqa muddatda amalga oshirilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

#### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 26 dekabrdaqi “**Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to‘g‘risida**”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 22 sentabrdagi “Mehnatni muxofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri).

4. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Abdullaev N., Mo‘minov A., Abidova F. “Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish Davlat tizimi rahbarlari va tuzilma boshliqlarining funksional vazifalari”, o‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T: FMI. 2007 y. – 119 b.

6. Gazinazarova S., Yuldoshev O. “Avariya qutqaruv ishlari, o‘quv qo‘llanma”. - Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti: 2013 y. - 160 b.

7. Galimova L.G. “Favqulodda vaziyatlar xavfi tug‘ilganda va sodir bo‘lganda aholini ko‘chirish”, o‘quv - uslubiy qo‘llanma. – T: FMI. 2011 y. – 68 b.

8. Galimova L.G., Uktamov N.P. “Organizatsiya i poryadok provedeniya evakuatsii naseleniya pri ugroze i vozniknovenii chrezvychaynykh situatsiy”, uchebno-metodicheskoe posobie. - T.: IGZ. 2018 y. –77 st.

9. Golovchenko F.F., Potasenko Yu.P., Semenov V.V. “Evakuatsionnye meropriyatiya na ob’ekte”. – Moskva: 2007 g.

10. Qurbonov J.M., Mamarasulov Z.E. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, o‘quv qo‘llanma. – SamISI: 2016 y. – 272 b.